
Jurnalist tekshiruvi. Farg'onamizni yomonotliq qilishdan kim manfaatdor?

Keyingi paytlarda xorijiy va ayrim o'zbek saytlarida Farg'ona viloyati borasida turli yolg'on ma'lumot, fitnalar ko'p tarqala boshladi. Ularning ayrimlari bo'yicha haqiqiy holat aniqlanib, Internet tarmog'i saytlarida qator rad etuvchi chiqishlar qilindi. Jumladan, viloyatning Marg'ilon shahridagi rekonstruksiya qilinib nogironligi bor shaxslar va ehtiyojmand oilalarga berilgan xonadonlar borasidagi ozodlik.org sayti tarqatgan mish-mishlar va hokazo uydirmalarning yolg'onligi isbotlandi. Navbatdagi shunday uydirmalardan biri Rishton tumanidagi markaziy bozorning buzilishi va tadbirkorlarning do'koni uchun tovon puli to'lab berilmayotganligi haqida BBCUZBEK.COM sayti tarqatgan xabardir.

Biz, eng avvalo, masalaga oydinlik kiritish uchun Rishton tumani hokimligiga kirib borib mutasaddilar bilan bog'landik. Bu yerda tuman hokimligining qurilish masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi Furqatjon O'rinboev bizni kutib oldi. Uning aytishicha, Bosh reja asosida 21 ta turar joy, 3 ta noturar joy buziladi. Buzilgan ob'ektlarning maydoni qancha bo'lsa, shuncha er maydoni ajratib beriladi va buzilgan do'konlar uchun zarar qoplab beriladi. Faqat bu ish komissiya xulosasiga ko'ra bino buzilgandan keyin dalolatnoma tuzilib amalga oshiriladi. Chunki buzilgan do'konlardan chiqqan materiallar ham do'kon egasining ixtiyoriga ko'ra pulga hisob-kitob qilinishi mumkin. To'lov miqdori va kompensatsiya turini belgilash bo'yicha 11 kishidan iborat komissiya tuzilgan. Baholash esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 15 noyabrda "Rishton shahar Bosh rejasini amalga oshirish, 2012-2015 yillarda ijtimoiy va transport-kommunal infratuzilmasi ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1641-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 29 may kungi № 97-sonli qarori talablariga ko'ra baholanadi.

Rishtonning markaziy bozoriga yo'l olamiz. U erda bozor ma'muriyati xodimlari kelgunlaricha do'konlari buzilishga tushgan tadbirkorlar bilan suhbatlashishga harakat qilamiz. Madaminov Zafarjon, Mamajonov Zafarjon, Abduhakimov Abdusalomlarning bozor rekonstruksiyasi bo'yicha fikrlari bilan qiziqdik. Ular o'z talablarida buzishdan oldin ogohlantirish xati berilishi kerakligi, buzilgan do'kon maydoni o'rniga er berilish kerakligi, zarar qoplanishi kerakligini talab qilayotganliklarini aytishdi. Oldindan bilganimizda tayyorgarlik ko'rib turardik, bu savdomizga ta'sir qilyapti, deyishdi. Bozorning ko'cha qismida joylashgan ikki qavatli do'konning egasiman deb o'zini tanishtirgan Abdullaev Biloliddin do'koni buzilishidan norozi. Mening binoimning nimasi zamonaviy emas, deydi.

Albatta, tinchgina savdo qilayotgan joyining buzilishini hech kim istamaydi. Lekin viloyat bo'yicha qaror asosida barcha tumanlarda dehqon bozorlari qayta quriladi. Shu shikoyat qiluvchilarning ayrimlarining do'koni buzilmayotgan ekan. Biloliddinning do'koni egasi esa boshqa odam ekan.

Bu orada etib kelgan bozor MCHJ rahbari Orifjonov Islomjon hech kim hech narsaga kuymasligini, shuningdek, do'konlarning ko'pi yong'in xavfsizligi qoidalariga zid ravishda qurilganligi, mashina kirishi uchun yo'l yo'qligini, do'kon egalari yangi qurilgan do'konlarga aksiyador bo'lib kirishini tushuntirdi.

-Binolarning buzilish yo qolishi haqida yana mutaxassis chaqiramiz, balki ayrimlari buzilmas. Ammo ularning ko'pi noqonuniy qurilgan, - deydi Islomjon. - Bozor oldiga avtomashinalar uchun stoyanka quramiz. Xudo xohlasa, 1 sentyabrga Mustaqillik bayramiga zamonaviy ko'rinishdagi bozorni topshirmoqchimiz. Do'konlari buzilgan tadbirkorlar uchun vaqtincha joylar qilib berganmiz. Bu esa savdoning to'xtab qolmasligini ta'minlaydi.

Biz tuman hokimi Tavakkaljon Rahimovga ham qo'ng'iroq qilib holat bo'yicha axborot berishini so'radik.

-Buzishdan oldin hamma tadbirkorlarni yig'ib majlis o'tkazib tushuntirish berganmiz. Qo'llariga Vazirlar Mahkamasining 97-sonli qarori tarqatib berilgan, - deya izoh berdi hokim va hech kim mulkiga kuymasligini, hammasi qonun doirasida bajarilayotganligini ta'kidladi.

Darhaqiqat, bu boradagi ishlarning barchasi davlat rahbarining qarori doirasida bajarilmoqda. 2017 yil, 27 mart kuni imzolangan "2017-2019 yillar davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish dasturini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida dehqon bozorlarida xavfsizlik choralari, xususan, bino va inshootlarda yong'in xavfsizligi talablari, sanitariya qoidalari va normalari, gigiena normativlari to'liq inobatga olinishi, avtotransport vositalari turar joylari, sotuvchilar uchun etarli joy bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "respublikaning qishloq joylaridagi dehqon bozorlari hududida zamonaviy savdo majmualari qurilishiga - O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining mablag'lari, shaharlarda

esa – tadbirkorlik sub’ektlarining o‘z mablag‘lari hamda tijorat banklarining kreditlari...moliyalashtirish manbalari etib belgilansin” deb ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, qarorda tadbirkorlarga yer uchastkalari ajratilishi va zarar qoplanishi ham belgilangan. Demak, ortiqcha vahimaga o‘rin yo‘q.

ozodlik.org sayti tarqatgan Kichik Ganjiravon qishlog‘ida ichimlik suvi tarmog‘iga ulanish uchun aholidan 10 million so‘mdan pul talab qilinmoqda, degan xabar bo‘yicha Dang‘ara tumaniga yo‘l olamiz. Tuman hokimligiga kirib borib, viloyat “Suvoqova DUK” Dang‘ara tuman filiali boshlig‘i Jahongir Tojiboevni izlab topdik. Undan yozilgan holat bo‘yicha izoh berishini so‘raymiz:

- Kichik Ganjiravon qishlog‘ida deyarli hamma xonadon suv bilan ta‘minlangan. Xatlov o‘tkazganmiz, aksariyati hali ko‘chib kelmagan 14 ta xonadonga suv olib kirilmagan, xolos. Bu erda 2 ta davlat tomonidan qurilgan, 1 ta aholi tomonidan hashar yo‘li bilan qurilgan quduq bor. 2014 yilda Dang‘ara tumani suvoqova ishlab chiqarish davlat korxonasi bo‘lgan. Birinchidan, mutaxassis yo‘q bo‘lgan, Davlat dasturiga kiritishni ham bilmagan, ikkinchidan, u paytda MCHJ lar ham aholiga xizmat ko‘rsatgan. Ularning faoliyatidan rahbariyat qoniqmasdan DUKka aylantirdi. Keyin Vazirlar Mahkamasining 306-sonli qarori bilan ichimlik suvga e‘tibor kuchaydi. Tumanda 4 ta sektor rahbarlari hududlarda ichimlik suvi tortib berishni yo‘lga qo‘ymoqda. Aholi faqat ko‘chadan uyiga olib kirish uchungina xarajat qilishi mumkin. Xatlov davrida 10 mln.dan yig‘ilyapti deb aytgan odamni uchratmadik, bunga aholining o‘zi ham hayron.

Kapital qurilish, obodonlashtirish va kommunikatsiyalar masalasi bo‘yicha tuman hokimi o‘rinbosari Ulug‘bek Sobirovni suhbatga tortamiz:

- 2016 yildagi Vazirlar Mahkamasining 306-sonli qarori asosida chet el agentliklari tomonidan olib kelingan tarmoqlardan tashqari tuman bo‘yicha barcha hududlar tarmoqlashtirishga tortiladi, xarajat qilinadigan materiallar hisoblanyapti. Bitta quduq 300 mln atrofida turadi. Davlat dasturiga kiritilib, davlat byudjetidan pul ajratiladi. Aholidan pul yig‘ish haqda gap bo‘lgani yo‘q, o‘zim aholi ichida qaror mazmun-mohiyatini tushuntirganman, - deydi u, - biz quduqning magistral liniyasini tortib beramiz, aholini to‘liq qamrab olamiz.

Shundan keyin aholi bilan suhbatlashish maqsadida Kichik Ganjiravon sari otlanamiz. Bu erda Katta Ganjiravon hamda Kichik Ganjiravon yonma-yon joylashgan ekan. Ayni shu ikki hudud boshlanishida o‘rnatilgan suv chiqarish qudug‘iga ko‘zimiz tushdi. Bu o‘sha aholi hashar yo‘li bilan o‘rnatgan quduq bo‘lib, ikki mahallani suv bilan ta‘minlar ekan. Katta Ganjiravonga qarashli Afrosiyob ko‘chasi, 127-uyda yashovchi Mamatqulov Tohirjonlar oilasi ichimlik suvi tarmog‘iga ulanishda bor-yo‘g‘i 45 ming so‘m pul xarajat qilganlarini aytishdi, bu ishning boshida turganlarga, ayniqsa mahalla oqsoqoli Davlatjon akaga minnatdorchiliklarini bildirishdi.

-Bu ko‘rolmaslik oqibati bo‘lsa kerak, xolos. Bizning hech qanday e‘tirozimiz yo‘q. Bo‘lmagan gap bu, - deydi Kichik Ganjiravon mahallasi, Xalqobod ko‘chasi, 114-uyda yashovchi fuqaro SHERALIEV ISOQJON. - bizdan hech kim 10 million so‘m pul so‘ragani yo‘q.

Shu ko‘chada yashovchi ismi sir qolishini so‘ragan ayol esa 2014 yilda aholi bir milliondan pul yig‘ib quduqni tushirganini, hozir esa suvni bekorga iste‘mol qilishlarini, faqat oyiga 10 ming so‘mdan quduq ishlashi uchun elektr energiyasiga pul to‘lashlarini aytdi.

-Biror kishi bizdan pul so‘ramagan. Oyiga 10 ming so‘mdan svetga pul yig‘amiz, ammo shuniyam qiynalgan oilalardan olmaymiz. Ko‘pincha mahalla oqsoqoli Davlatjon aka ular uchun o‘zi to‘lab yuboradi. - dedi Xalqobod ko‘chasida yashovchi Mamataliev Akmaljon. - Quduqni tushirishda ham qurbi etmagan oilalardan umuman pul olinmagan, ammo ichimlik suvi xonadonlariga ulab berilgan.

Yuqoridagi fikrlarni mahallaning barcha aholisi tasdiqladi. Kichik Ganjiravonliklar suvni ilgari necha kilometrdan tashib kelib ichganlarini, hozir esa sharoitlari yaxshilangani uchun minnatdorchiliklarini, kim yolg‘on xabar tarqatdi ekan deya juda g‘azabdaliklarini bildirdilar.

Bunday soxta xabarlardan yana biri ozodlik.org sayti tarqatgan Qo‘qon bozorlarida tadbirkorlarning 8 million so‘mdan homiylik qilishga majburlanayotgani haqidagi gapdir. Shu postning ostida qo‘qonlik savdogarlardan Tohirjon Teshaboev va Jo‘rabek Botirovlar bu yolg‘on, hech qanday unaqa gap yo‘q deb fikr bildirgantar.

Xorij saytlari va ayrim milliy saytlarning ham olib borayotgan faoliyati bizni taajjubga soladi. Ularning maqsadi nima? Aniqrog‘i, ular Farg‘ona viloyatini yomonotliq qilib ko‘rsatishga kimdandir ko‘rsatma

olganlar (balki moddiy rag'bat olgandirlar, bunisini Xudo biladi). Eng yomoni vatan taraqqiyoti yo'lida tinch mehnat qilayotgan kishilarni ishdan qo'yib, asabiga tegmoqchi bo'lishadi, shekilli. Aslida anonim tarzda xabar bergan kishining aniq manzili, ism-familiyasi ko'rsatilmagan xabarlarga e'tibor qaratishimiz ham kerak emas edi. Ammo xalqimiz fikrini buzishga intilayotgan bunday kimsalarga qimmatli vaqtimizni ketkazib o'z vaqtida javob berishimiz ham kerakka o'xshaydi.

Gulbahor Saidg'anieva

2018-03-03 12:48:51